

THE IMPORTANCE OF THE CIVIL SERVICE INSTITUTE IN THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN. ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCES.

Jumabayeva Maftuna

Karakalpakstan is a state named after Berdak

Faculty of Jurisprudence of the University "State

management law" 1st year master's student

maftunajumabayeva1904 @gmail.com

Annotation: The article covers the reforms being implemented in the field of the civil service institute in our country. The political structure of foreign countries in the field of the civil service institute is also presented.

Keywords: People's will, government officials, people's interests, law enforcement agencies, labor code, rotation and responsibility

ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТА ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ В РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА. АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА.

Джумабаева Мафтуна Кудрат кызы

Каракалпакстан – государство имени Бердака.

Факультет юриспруденции Университета «Государственный

право управления» студент 1 курса магистратуры

maftunajumabayeva1904 @gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются реформы, реализуемые в сфере государственной службы в нашей стране. Также представлена политическая структура зарубежных стран в сфере институтов государственной службы.

Ключевые слова: Народная воля, государственные служащие, общественный интерес, правоохранительные органы, трудовой кодекс, ротация и ответственность.

YANGI O‘ZBEKISTONNING RIVOJLANISH DAVRIDA DAVLAT XIZMATLARI INSTITUTINING MUHIM AHAMIYATGA EGA EKANLIGI. XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI.

Jumabayeva Maftuna Qudrat qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat

Universiteti Yuridika fakulteti “Davlat

boshqaruvi huquqi” 1-kurs magistiranti

maftunajumabayeva1904 @gmail.com

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda davlat xizmatlari instituti sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan. Shuningdek xorijiy davlatlarning davlat xizmatlari instituti sohasidagi siyosiy tuzimi keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Xalq irodasi, davlat organlari mansabdor shaxslar, xalq manfaati, huquqni muhofaza qilish organlari, mehnat kodeksi, rotatsiya va javobgarlik .

Kirish:

Davlat xizmatlari instituti bugungi kunda eng ahamiyati yuqori turuvchi organ sohalaridan biri xisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasida davlat xizmatining huquqiy asoslari Konstitutsiya va koʻplab qonun hujjatlarida mustahkamlab qoʻyilgan.

Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar” deb belgilab qoʻyilgan.

Ya’ni, davlat organlari, mansabdor shaxslar xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerakligi ta’kidlangan¹. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 7-moddasida “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Oʻzbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini koʻzlab va Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi” deb yozib qoʻyilgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda sud va huquqni muhofaza qilish organlarida xizmat qiluvchilar va ularning mansabdor shaxslari faqat “xalq irodasini ifoda” etib “xalq manfaatlarini koʻzlab ishlashi uchun ularning huquq va majburiyatlari, jumladan ishga qabul qilinishi va ishdan boʻshatilishi masalalari, xizmat vazifa va burchlari, xizmat etikasi masalalari, rotatsiya va javobgarlik masalalari, xizmat yuzasidan yuzaga keladigan nizolarni hal qilish masalalari davlat xizmatining oʻziga xos xususiyatlarini anglagan holda huquqiy tartibga solingan boʻlishi, ya’ni maxsus qonun bilan belgilab qoʻyilishi kerak.

Oʻzbekiston Respublikasida davlat xizmatchilariga oid huquqiy masalalar qonun hujjatlarida u yoki bu darajada belgilab qoʻyilgan boʻlsa-da, barcha sohada davlat xizmatining yagona talablarini oʻrnatadigan davlat xizmati toʻgʻrisida yagona qonun mavjud emas.

Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida davlat xizmatiga oid bir qancha meʼyorlar oʻrnatib qoʻyilgan. Jumladan, Mehnat kodeksining 1-moddasida “mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda, shuningdek ayrim fuqarolar ixtiyorida mehnat shartnomasi (kontrakt) boʻyicha ishlayotgan jismoniy shaxslarning mehnatga oid munosabatlari mehnat toʻgʻrisidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi deb oʻrnatib qoʻyilgan.

Biroq Mehnat kodeksining boshqa moddalarida, jumladan 18-moddasida² davlat xizmatidagi mehnat munosabatlarining oʻziga xos xususiyatlari mavjudligi belgilab qoʻyilgan. Bundan tashqari mehnat kodeksida davlat xizmatidagi mehnat munosabatlarining alohida qoidalari belgilangan holatlar ishga kirish va nizolarni hal qilish masalalarida ham mavjudligini koʻrish mumkin.

Bu kabi masalalar yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida davlat xizmatchilariga taalluqli mehnat munosabatlari qanday tartibga solinlgan. Bu savolning javobi yagona hujjatda emas, balki turli normativ- huquqiy hujjatlarda mavjud. Baʼzan esa ulardan qaysi biri umumiy va qaysi biri maxsus qoida ekanini bilish qiyin. Shuningdek, qonunchiligimizda ayrim toifalardagi mehnat munosabatlarining oʻziga xos xususiyatlari belgilanishining asoslari nimalardan iborat ekanini, ya’ni davlat xizmatining turli sohalarida har xil qoidalar belgilanishining sababi nimadan iborat ekanini tushuntirish qiyin. Koʻpchilik hollarda, qonunchiligimizdagi bunday xilma-xillikni

¹ Oʻzbekiston Respublikasi va Konstitutsiyasi (yangi tahrir). 2023 yil 30 aprel Kuni oʻtkazilgan Oʻzbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovozi berish orqali qabul qilingan. // <https://lex.uz/docs/6445145>

² Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 18-moddasi

davlat xizmati to'g'risidagi yagona, tizimlashtirilgan qonunning mavjud emasligi bilan tushuntirishga to'g'ri keladi.

Davlat xizmatiga oid maxsus qoidalar shuningdek siyosiy sohada ham mavjud. Masalan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasiga³ asosan,

Quyidagilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar:

- sudyalari;
- prokurorlar va ularning tergovchilari;
- ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari;
- harbiy xizmatchilar.

Xo'sh, nega endi aynan sudyalari, prokurorlar va prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilarning siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishi ta'qiqlanmoqda degan jiddiy savol yuzaga keladi. Bu savolga javob esa ushbu organlardagi xizmatchilarning vazifasi yuzasidan xodimlarda ma'lum bir siyosiy qarashning mavjud bo'lishini istisno etishida ko'rish mumkin.

Sudyalari, prokurorlar va prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilarga o'xshagan boshqa sohadagi davlat xizmatchilari, jumladan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 38-moddasida sanab o'tilgan bo'xona, soliq organlaridagi surishtiruv organlari xizmatchilariga ham ushbu mantiq asosida siyosiy partiyaga a'zo bo'lishni ta'qiqlash mumkinmi degan savol yuzaga keladi. Bunday savollarga javob esa avval ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi davlat xizmati to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi zaruriyatini yana bir bor tasdiq etadi.

Ushbu o'rinda mehnat huquqi va ma'muriy huquq, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, davlat xizmatining farqini aytib o'tish o'rinli. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 1-moddasida "Mulchilikning barcha shaklidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda, shuningdek ayrim fuqarolar ixtiyorida mehnat shartnomasi(kontrakt) bo'yicha ishlayotgan jismoniy shaxslarning mehnatga oid munosabatlari mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi" deb o'rnatib qo'yilgan bo'lsa-da, lekin ushbu moddada davlat boshqaruv organlaridagi davlat xizmati yoki mehnat munosabatlari haqida qoida belgilangani yo'q.

Mehnat kodeksida davlat xizmatiga oid me'yorlar ham mavjud bo'lsa-da, Mehnat kodeksining barcha moddalari xususiy sektordagi yuridik va jismoniy shaxslarga ham, davlat boshqaruvi organlariga ham bir xilda, ya'ni ikkisiga ham bir mazmundagi qoida tarzida tadbqiq etiladi, deb aytib bo'lmaydi.

Xususiy sektorda mehnat munosabatlari kasaba uyushmalari, ularning saylab qo'yiladigan organlari, xodimlar tomonidan saylab qo'yiladigan boshqa organlar, ish beruvchilarning vakillik organlari tomonidan mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan bir qatorda jamoa kelishuvlari, jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ hujjatlar bilan ham tartibga solinadi.

Biroq davlat xizmatida umumiy qoida sifatida aytadigan bo'lsak, ish beruvchi, ya'ni davlat xizmatiga qabul qiluvchi tomon asosan davlatning o'zi bo'ladi. Shuning uchun ham davlat xizmatida har bir davlat organi alohida jamoa kelishuvi va shartnomalarini tuzishi qiyin. Chunki davlat organi nomidan ish ko'radigan rahbar ham bir paytning o'zida mehnat shartnomasi

³ Uzbekiston Respublikasining Siyosiy partiyalar to'g'risida Qonuni 26.12.1996 yildagi 337-I-son, kuchga kirish sanasi 01.07.1997 Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997, 2-son, 36-modda; "Xalq so'zi", 1997, 4 (1521)-o'g'il.

asosida davlatdan maosh olib ishlaydigan xodim – davlat xizmatchisi bo‘lib hisoblanadi. Shunday ekan, davlat boshqaruvi organlarining o‘ziga xos ma’muriy-huquqiy tabiati mavjudligidan kelib chiqqan holda davlat xizmatiga oid munosabatlarni mehnat kodeksidan alohida bo‘lgan qonun bilan, ya’ni davlat xizmati to‘g‘risidagi qonun bilan davlat xizmatining o‘ziga xos huquqiy tabiatidan kelib chiqqan holda tartibga solish zarurdir. O‘zbekistonning Yangi Taraqqiyot Davrida Yangi Tahrirdagi Konstitutsiyalari, Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyalari va uning mantiqiy davomi bo‘lgan "O‘zbekiston - 2030" strategiyasida xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish ko‘rsatilib, ushbu hujjatlarda davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini xalqaro huquq me’yorlari asosida takomillashtirish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish eng muhim maqsad va vazifa sifatida belgilanib o‘tildi.⁴

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, bugungi kunda davlat xizmati sohasida yagona, tizimlashtirilgan talablarni huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yish zarurati yuzaga kelyapti. Yurtimizda amalga oshirilayotgan davlat boshqaruvi organlarining demokratik tamoyillar asosida bosqichma-bosqich zamonaviylashtirishning mantiqiy davomi sifatida “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish zaruriyati mavjud. Respublikamizning turli hududlarida (viloyat, tumanlarda) ishga qabul qilinayotgan davlat xizmatchilari, shu jumladan ijro organlari xizmatchilarining bir xil darajadagi bilim-saviyaga ega bo‘lishi, avvalo, ularga nisbatan yagona imtihon tizimining joriy etilishiga bog‘liqdir. Bundan tashqari, kadrlarni doimiy ravishda sifatli tarzda qayta tayyorlash, o‘quv mashg‘ulotlar o‘tkazish va mamlakatimizda kadrlar boshqaruvi sohasida yagona standart, qoidalarga asoslanib ishlaydigan davlat boshqaruv organini tashkil etilishini talab qiladi. Mazkur maqolada qisqacha tahlil qilingan Yaponiya davlat xizmati tizimining ko‘plab afzal taraflari mavjud bo‘lib ulardan mamlakatimiz qonunchiligini yanada takomillashtirishda davlat xizmati sohasida xorijiy davlatlar kadrlardagi huquqiy tajribaning biri sifatida foydalanish mumkin. Ularni mamlakatimizga jalb qilib turli xil sohalarda fikr va tajriba almashilishi davlatimiz taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatmoqda, davlat xizmatidagi huquqiy islohotlarni yanada takomillashtirishmoqda. Yapon tajribalaridagi har bir shaxsning o‘z ishga nisbatan halollik va innovatsion yondashish tom ma’noda yurtimiz rivoji uchun na’muna sifatida olinadi. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, davlat xizmatchilarining “xalqqa vijdon bilan, halol xizmat qilishini” ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi va Konstitutsiyasi (yangi tahrir). 2023 yil 30 aprel Kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. // <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 18-moddasi
3. Uzbekiston Respublikasining Siyosiy partiyalar to'g'risida Qonuni 26.12.1996 yildagi 337-I-son, kuchga kirish sanasi 01.07.1997 Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997, 2-son, 36-moddasi; “Xalq so‘zi”, 1997, 4 (1521)-o‘g‘il.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining .09.2023 yildagi PF-158-sonli “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, 11, <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining .09.2023 yildagi PF-158-sonli “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, 11, <https://lex.uz/ru/docs/6600413>